$\frac{v_1}{m/s}$	2.0	2.1
$\frac{v_2}{m/s}$	3.0	3.1
$\frac{v_3}{m/s}$	4.1	4.0

## 5-laboratoriya ishi. GIROSKOP CHAYQALISHI.

### Tajriba maqsadi:

- Azimutda muvozanatda turuvchi giroskopning chayqalish chastotasining aylanish chastotasiga bog'liqligini o'lchash.

$$- f_n = f_z \cdot \frac{J_Z}{J_{XY}} \quad \text{bog'lanishni}$$

nazariya bilan solishtirish  $J_Y - z$  o'qi bo'lab inertsiya momenti.

$J_{XY}$ -ekvotorial o'q bo'ylab inertsiya momenti.

Aylantiruvchi moment ta'sir qilmayotgan simmetrik giroskop og'irlik nuqtasida muvozanatda bo'ladi va uning impuls momenti quyidagiga teng va doimiydir.




$$\vec{L} = J\vec{\omega}$$

bu erda  $\omega$  -giroskopning burchak tezligi, J-inertsiya tenzoridir. Bizning tajribada qo'llanilayotgan giroskop uchun J inertsiya momenti quyidagi tashkil qiluvchilarga ega.

$$J = \begin{pmatrix} J_{xy} & 0 & 0 \\ 0 & J_{xy} & 0 \\ 0 & 0 & J_z \end{pmatrix};$$

1-rasm. Qo'llaniladigan o'zgaruvchilar va (4) tenglamani differensiallash uchun; matnga qarang.

Agar burchak tezlik yo'nalishi inertsiya momenti asosiy o'qlari bo'ylab yo'nalmagan bo'lsa, L va  $\omega$  yo'nalishi mos tushmaydi. Natijada, giroskopning koordinata boshi bilan bog'langan o'qi bir nuqtada doimiy turmaydi, ammo impuls momenti ektori yo'nalishi bo'ylab f-“chayqalish chastotasida” aylanadi. Burchak tezlik w ikkita tashkil qiluvchiga ajratilishi mumkin  $\omega_Z$ -giroskop o'qi bo'ylab aylanish burchak chastotasi va  $\omega_N$  chayqalish burchak tezligi(1-rasmga qarang).  $\omega$  yo'nalishi



ham “oniy aylanish o’qi” kabi aniqlanadi.  $L$ ,  $\omega$  va  $\omega_Z$  yo’nalishlari doimo bir tekislikda yotadi.  $\omega_Z$  va  $\omega_n$  orasidagi bo’glanishni hisoblash uchun biz giroskop harakatini giroskop tanasi bilan bog’langan koordinatalar sistemasining laboratoriya bilan bog’langan Dekart koordinatalar sistemasi bilan mos kelgan vaqtda o’rganamiz.

Dastlab, quyidagi tenglamalar  $L$  impuls momenti tashkil qiluvchilari uchun o’rinlidir:

$$\begin{aligned} L_y &= J_{XY}\omega_y = L \sin \theta \\ L_z &= J_Z\omega_z = L \cos \theta \end{aligned} \quad (\text{I, II})$$

$L_x$  nolga teng chunki,  $L(x,y)$  tekislikda yotadi. 1-rasmda biz quyidagini olishimiz mumkin:

$$\sin \theta = \frac{\omega_y}{\omega_n} \quad (\text{III})$$

(1) va (3) dan dastlab quyidagino olishimiz mumkin.

$$L = J_{XY}\omega$$

Agar biz (2) tenglamadan  $L$  ni yo’qotib bu tenglamani  $w$  bo’yicha yechsak  $\omega_n$  uchun quyidagini olamiz.

$$\omega_n = \omega_z \frac{J_z}{J_{xy} \cos \theta}$$


yoki  $2\pi$ ga bo’lingandan keyin va kichik  $\theta$  burchaklar uchun

$$f_n = f_z \cdot \frac{J_z}{J_{XY}} \quad (\text{IV})$$

Aylanish chastotasi  $f_Z$  va chayqalish chastotasi  $f_n$  orasidagi bo’glanishni ifodalovchi proporsionallik koeffitsiyenti tajribada miqdor jihatdan ko’rsatildi. Agar giroskopning asosiy inertsiya momentlari  $J_Z$  va  $J_{XY}$  ma’lum bo’lsa proporsionallik koeffitsiyenti  $J_Z/J_{XY}$  ham aniqlanishi mumkin.

### Qurilma tarkibi:

U-simon yorug’lik datchigi, Ulanish kabellari 6-o’zakli, Taglik asosga o’rnatilgan katta giroskop, Sanagich-P, Raqamli snagich, Boshqaruv paneli, Taglikli sterjen 75 sm, Taglikli sterjen 47 sm, Taglikli sterjen 25 sm, Leybold multiqisqichlari, Stolga qo’yikadigan qisqich(tutgich) yakka, Ulash simlari 25 sm,



### Qurilma:

Qurilmani 2-rasmda ko'rsatilgani kabi tuzing va bir birga biriktiring va ulang. Boshqaruv panelidan qora rangdagi (a) tugmani bosib Tinchayqalish davrini o'lchang. "man" rejimi uchun (b) kalitni ulang. Vaqt shkalasini ms ga va chastotani 1 kHz qilib tanlash uchun (c) tugmani "Hz" shkala rejimni tanlash uchun (d) tugmani bosing. Giroskopni shunday sozlangki og'irlik markazi tayanch sterjen oxirida bo'lsin. Buni posibnik vtulkasida mahkamlagichni siljitib tekshiring. Giroskop o'qini giya holda saqlab uni sekin aylanish holatiga o'tkazing va qo'yib yuboring. Pressesiya harakati sodir bo'lmasin.

Sozlash uchun yordamchi ma'lumot: to'g'ri sozlangan holda podshibnik korpusi yuqori nuqtasi podshibnik panelida ko'rsatilgan belgi sathida bo'ladi. Giroskop tagligini shunday siljitingki val (e) yorug'lik datchigi nurini kesib o'tsin, keyin esa (f) yorug'lik datchigini shunday o'rningdagi nurini giroskop spetsiyalari kesib o'tsin (kesib o'tish holati yorug'lik datchigidagi LED diodlar bilan indikatsiya qilinadi).

1-rasm. Chayqalish chastotasi  $f_n$  va aylanish chastotasi  $f_z$  ni aniqlash qurilmasi.

### Tajribaning borishi:

Chap qo'lingiz bilan giroskop validan ushlang va chap qo'lingiz bilan giroskop tez aylanishi uchun bir nech bor turtki bering. Giroskop valini qo'yib yuborganingizda unga yon tomonga qarab kichik turtki beringki, chayqalish boshlanganda u yorug'lik datchigi nuri yo'lini kesib o'tsin.

Boshqaruv panelida reset tugmasini bosib T chayqalish davrini sanagich bilan aniqlang. P sanagichdagi 18 f nurni kesib o'tish soniga (18-spetsiya) 1 ta aylanish yoki bir davr to'g'ri keladi. Tajribani aylanish tezligi kamayishi barobarida bir necha marta takrorlang (Har bir o'lchashdan oldin reset tugmasini bosishni unutmag).

Baholash va natijalar.  
 $f_n = f(f_z)$  funksiyaning grafikli tasvirlanishi nutatsiya (chayqalish) chastotasi va aylanish chastotasi orasidagi boglanish chiziqli ekanligini ifodalaydi (3-rasmga qarang).  $f_n \sim f_z$  yoki  $f_n/f_z = \text{const}$  Bu erda

$$c = \frac{\Delta f_n}{\Delta f_z} = 1.54$$

3-rasmdagi burchak qiyaligi bundan olamizki

$$\frac{f_n}{f_z} = 1.54$$

18 $f_z$ In Hz	$T_n$ In ms	$f_n = \frac{1}{T_n}$ In Hz	$f_z$ In Hz
38	308	3.25	2.11
35	301	3.32	1.94
33	355	2.82	1.83
32	362	2.76	1.78
30	387	2.58	1.67
28	420	2.38	1.56
26	440	2.27	1.44
25	467	2.14	1.39
22	536	1.87	1.22
20	575	1.74	1.11
19	610	1.64	1.06
18	645	1.55	1.00
17	688	1.45	0.94
16	729	1.37	0.89
15	774	1.29	0.83
14	859	1.16	0.78
13	890	1.12	0.72
11	1089	0.92	0.61

3-rasm. Nutatsiya(chayqalish) chastotasi  $f_n$  va  $f_z$  aylanish chastotasi orasidagi bog'lanish.


(4) tenglamaga asosan quyidagi bog'liqlik kelib chiqadi:

$$\frac{f_n}{f_z} = \frac{J_z}{J_{xy}}$$


O'qqa ta'sir qiluvchi inertsia momenti  $J_z=0.128 \text{ kg m}^2$  va ekvatorial inertsia momenti  $J_{xy}=0.0855 \text{ kg m}^2$  bo'lganda:

(1.4.4.3-tajribadan olingan) quyidagiga egamiz:

$$\frac{f_n}{f_z} = \frac{0,128 \text{ kgm}^2}{0,0855 \text{ kgm}^2} = 1.5$$



4-rasm. Giroskop valini kiritish uchun qog'oz disk. O'lchami diskka bog'liq va markazdagi tirqishi diametri 12 mm.



**Eslatma:**


***Giroskop valiga 4-rasmida keltirilgan qog'oz joylashtirilsa va u yaxshi aylansa, bilan mos kelsa***

1-rasmida ko'rsatilgan impuls momenti, burchak tezlik simmetriya o'qi holatlari bizzning tajribada qo'llanilgan yassi giroskop uchun o'rinlidir. Cho'zinchoq giroskop uchun esa (yassi giroskopdan farqli ravishda  $J_z < J_{xy}$ ) oniy aylanish o'qi inertsia momenti vektori qoyilgan nuqta va simmetriya o'qi orasida joylashadi. Biroq shuning uchun (4) bog'liqlik o'rinlidir.



## 6-laboratoriya ishi.

### MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA ERKIN TUSHISH TEZLANISHINI ANIQLASH.



#### Tajriba maqsadi:

- Mayatnik tebranish davrining mayatnik ipi uzunligiga bog'liqligini aniqlash.
- Mayatnik tebranish davrining mayatnik og'ish burchagiga bog'liqligini aniqlash.
- Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash.

#### Qurilma tarkibi:

Osmaga osilgan sharli mayatnik, Po'lat o'lchash lentasi 2 m, Stopli soat

#### Nazariy ma'lumot.

Tebranish (va to'lqin) tabiatda va texnikada ko'p kuzatiladigan va yaxshi ma'lum bo'lgan hodisadir. Bu hodisani ham nazariy ham amaliy o'rganish fizikaning fundamental asoslarini tushunish va o'rganishda juda muhim hisoblanadi. Shuningdek bu tajribalar nazariy va amaliy fizika orasidagi bog'liqlikni elementar darajada tushunishga imkon beradi. Matematik mayatnik tajribasi mexanik tebranishni modelini vaqt va uzunlikni o'lchash bilan tavsiflovchi ko'plab turli tajribalar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Boshqa mexanik tebranishlar modelini tadqiq qilish uchun quyidagilarga murojat qiling: fizik mayatnik (ya'ni teskari mayatnik: P1.5.1.2 to P1.5.1.6), prujinali mayatnik (P1.5.2.1 yoki S-laserli harakat sensori bilan CASSY tajribalari: PCP1.5.1 dan PCP1.5.5 gacha) va aylanma tebaranish (P1.5.3.1 dan P1.5.3.4 gacha) bularning bari o'rganilishi zarur bo'lgan tebranishlarning asosiy turlaridir (erkin, majburiy va haotik tebranishlar titrash tebranishi bilan birga).

Oddiy matematik mayatnik deganda  $L$  uzunlikdagi vaznsiz ipga osilgan  $m$  massali moddiy nuqta tushuniladi. Ishqalanish kuchlarini hisobga olmagan holda moddiy nuqta harakati Nyuton qonunlari asosida nazariy ravishda quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

$$J \frac{d^2 \varphi}{dt^2} + D \cdot \sin \varphi = 0 \quad (\text{I})$$

$J = m \cdot L^2$  osma chetiga nisbatan inertsiya momenti

$D = m \cdot g \cdot L$  kuch momenti

$g$ : erkin tushish tezlanishi

$\phi$ : og'ish burchagi

$m$ : massa.

Kichik burchaklar ( $\sin \phi \approx \phi$ ) uchun (I) tenglama yechimi moddiy nuqta quyidagi tebranish davri bilan o'g'irlik kuchi ta'sirida tebranishini ko'rsatadi:

$$T = 2 \cdot \pi \sqrt{\frac{J}{D}} = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad (\text{II})$$

Shuning uchun mayatnik tebranish davri  $T$  va  $L$  uzunligini bilgan holda matematik mayatnikdan  $g$  erkin tushish tezlanishini aniqlash mumkin. Mayatnik tebranishi ham energiya aylanishini kuzatish mumkin bo'lgan standart namunadir. (I) tenglamani  $t$  vaqt bo'yicha integrallab energiyaning saqlanish tenglamasi ilinishi mumkin:

$$L^2 \left( \frac{d\varphi}{dt} \right)^2 + 2gL(1 - \cos \varphi) = E_{kin} + E_{pot} = E_0 = const \quad (\text{III})$$

$E_{kin}$ : kinetik energiya.

$E_{pot}$ : potensial energiya.

$E_0$ : to'la energiya.

$\phi = \alpha$  bo'lgan nuqtada burchak tezlik nolga tenglashadi va potensial energiya minimal qiymatga erishadi:

$$E_0 = 2gL(1 - \cos a) \quad (\text{IV})$$

(III) tenglamani (IV) tenglama bilan almashtirsak kattaroq og'ish burchaklari uchun tebranish davrini aniqlash imkoni paydo bo'ladi:

$$\frac{T}{4} = \sqrt{\frac{L}{g}} \int_0^a \frac{d\varphi}{\sqrt{\cos \varphi - \cos a}}$$

$k = \sin a/2$  deb olsak tebranish davri quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{T}{4} = \sqrt{\frac{L}{g}} \int_0^{\pi/2} \frac{d\varphi}{\sqrt{1 - k^2 \sin^2 \varphi}} = 4 \sqrt{\frac{L}{g}} \cdot K(k)$$

Bu erda  $K(k)$  birinchi tartibli elliptik integral. Tebranish davri uchun berilgan  $K(k)$  tartibni davom ettirsak:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \left( 1 + \frac{1}{4} \sin^2 \frac{\varphi}{2} + \dots \right) \quad (\text{V})$$

O'g'ish burchagining kichik qiymatlarida ya'ni  $\varphi \leq 7^\circ$  bo'lsa, tebranish davri (II) tenglama natijasiga yaqin bo'ladi – bu tenglama esa  $m$  massali jismga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarni hisobga olgan (I) tenglama. Mazkur tajriba qurilmasida po'lat sharcha po'lat sigma

osilgan. (Muqobil sifatida po'lat sim o'rniga leskadan (309 48) foydalanish ham mumkin.) Osmo mayatnik ilgakliburama mixga o'rnatilgan moslamada ishqalanishni kamaytirish uchun uchi bilan igna (ishqalanishni kamaytirish uchun)qo'yilgan.

Metall sharcha massasi po'lat simmassasidan ancha katta va osma turli ishqalanishlardan holi yoki minimallashtirganda matematik mayatnikning nazariy modelining approximatasiyasidir. Natijalar aniqligini oshirish uchun tebranishlar sonini ham oshirish zarur. Bunday holda erkin tushish qiymatidagi xatolik faqat mayatnik uzunligi qiymatidagi xatolikka bog'liq bo'ladi.


### **Qurilma:**

Birinchi, osma mayatnikning ilgagi shiftning bo'rtik joyiga yoki mos joyiga maxsus moslama bilan birlashtirish zarur bo'ladi. Osmali mayatnikni og'ish burchagini aniqlash oson bo'lishi uchun devor yaqiniga joylashtirish tavsiya qilinadi.

Po'lat simning bir uchi ilgakli burama mixga ilinadi, bog'langan. Ikkinchi uchi esa sim uzunligi o'lchangandan keyin halqaga mahkamlanadi. Shiftda parma bilan o'rin oching va ilgakni o'rning. Po'lat sim o'rniga leskadan foydalanish ham mumkin.

1-rasm.  $L$  uzunlkdagi  $\varphi$  burchakka og'dirilgan matematik mayatnik tebranish davrini aniqlash qurilmasi.

Shiftga mahkamlangan ilgaksimon burama mixga sharli ip birlashtirilgan ilgaksimon igna ilib qo'yiladi. Mayatnik uzunligi sharchadagi burama mixni burab keragichaa moslashtirish mumkin.



### **Texnika xavfsizligi:**

***Og'ish burchagini katta olish sharchaning katta amplitudada tebranishiga sababchi bo'ladi va buning natijasida sharchadan atrofdagilar zararlanishi mumkin.***

### Tajribaning borishi

a) Tebranish davrini og'ish burchagi funksiyasi sifatida aniqlash

- Mayatnik uzunligini 1.0 metrdan uzunroq qilib tanlang.
- Bir nechta burchaklar uchun 10 davrni olchang.

Og'ish burchagini  $\phi$  ni aniqlash uchun mayatnik tagiga  $x$  ni aniq o'lchash uchun metall o'lchagich o'rnatilgan (1-rasmga qarang). Og'ish burchagi quyida berilgan trigonometrik tenglamadan aniqlanadi:

$$\phi = \arcsin \frac{x}{L}$$

b) Tebranish davrining uzunlikka bog'liqligini aniqlash.

- Mayatnik uzunligini 1.0 metrdan uzunroq qilib tanlang.
- O'lchash xatoligini kaamaaytirish uchun 10 tebranish davrini o'lchang
- Mayatnik uzunligi  $L$  ni o'lchang.
- tajribani mayatnikning uzunligini oz'gartirib takrorlang.

Mayatnik uzunligini 0.8 m dan 2.0 mgacha oraliqda tanlash tavsiya qilinadi.

### O'lchash namunasi

a) Tebranish davrining og'ish burchagiga bog'liqligini aniqlash.

1-Jadval. Mayatnik uzunligi  $L=2.05$  m bo'lganda  $T$  tebranish davrining (o'lchashda tebranishlar soni 10 dan ko'proq) og'ish masofasi (amplitudasi) va burchagiga bog'liqligi. Og'ish burchagi (VI) tenglama asosida aniqlanadi


$\frac{x}{m}$	$\frac{\phi}{^\circ \text{deg}}$	$\frac{T}{s}$
0.10	2,8	2,83
0.20	5,6	2.83
0.30	8,4	2.83
0.40	11,3	2.84
0.50	14,1	2.84
0.60	17,0	2.85
0.80	23,0	2.86
1.00	29,2	2.88
1.20	35,8	2.89
1.35	41,2	2.93
1.50	47,0	2.96
1.70	56,0	3.00

b) Tebranish davrining uzunlikka bog'liqligini o'lchash 2-jadval. Tebranish davri  $T$  (o'lchash 10 tebranishda)  $L$  uzunlik funksiyasi sifatida (kichik og'ish burchaklarida).

$\frac{L}{m}$	$\frac{T}{s}$
0.80	1.77
1.00	2.10
1.25	2.24
1.50	2.44
1.75	2.66
2.05	2.84

### Baholash va natijalar

2-rasm 1-jadval natijalarini akslantiradi: Tebranish davri  $T$  (V) tenglamaga asosan  $\sin^2(\varphi/2)$  qiymatiga proporsionaldir.




2-rasm. Uzunligi  $L = 2.05$  m bo'lgan mayatnikning  $T$  tebranish davrining og'ish burchagiga bog'liqligi. Bog'lanish yaqqolroq ko'rinishi uchun  $T$  qiymatining  $\sin^2(\varphi/2)$ ga bog'liqligi tasvirlangan. Uzluksiz chiziq (V) tenglama asosida olingan bog'lanishdir. 3-rasmda 2-jadvalda keltirilgan natijalar grafigi keltirilgan. Tebranish davri va mayatnik uzunligi  $L$  o'zaro quyidagicha bog'langan:

$$T \approx \sqrt{L}$$

Chizikli bog'lanish asosida (3-rasm) aniqlangan erkin tushish tezlanishi qiymati quyidagicha:

$$g = 9,81 m/s^2$$

adabiyotlardan Germaniya uchun olingan qiymat  $g=9.81$  m/s<sup>2</sup>



3-rasm. T tebranish davrining (kichik  $\varphi$  burchaklardagi) mayatnik uzunligi L ga bog'liqligi. Uzluksiz chiziq (II) tenglama asosida olingan.

**Qo'shimcha ma'lumot.**

Matematik mayatnik tebranish davrini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni birinchi bo'lib Galiley olib borgan bo'lib, u tebranish davrining mayatnik massasiga bog'liq emasligini aniqladi. Buni (II) va (V) tenglamalar tasdiqlaydi. Matematik mayatnik tebranish davrining massaga bogliq emasligini ko'rsatadi.

## 7-laboratoriya ishi.

### “MAKSVELL MAYATNIGI” LABORATORIYA QURILMASI.

#### Tajribaning maqsadi:

- Energiya saqlanishi qonuniga kirish
- Potensial energiyaning kinetik va yalanma harakat energiyasiga aylanishida energiya miqdorini o'lchash
- Maksvel diski inertsia momentini aniqlash



#### Qurilma tarkibi:

Maksvel disklari, U-simon tutgichga o'rnatilgan yorug'lik datchigi, Ko'p o'zakli kabel  $l = 1.5$  m, Sanagich-S, Magnit tutgichli qaytuvchi mexanizmlı adapter, Ko'rsatkichli o'lchagich, Egarsimon asos, Support block, Taglik asos MF, Sterjen ustun 50 cm, Sterjen ustun 100 cm, Leybold multiqisqichi.

#### Nazariy ma'lumot.

Mexanik energiyaning saqlanish qonunini namoyish qilish uchun Maksvel diskidan foydalaniladi. Agar disk qo'lda yuqoriga ko'tarilsa va pastga tusha boshlasa  $E_{pot}$  potensial energiya kinetik energiyaga aylanadi  $E_{rot} + E_{trans}$  (aylanish va o'zgargan energiya). Siytemaning to'la energiyasi  $T$  esa o'zgarmasdir:

$$E = E_{pot} + E_{trans} + E_{rot}$$

yoki (2)

$$E = mgh + \frac{m}{2}v^2 + \frac{I}{2}\omega^2$$

bu erda  $m$ -massa va  $I$ -disk inertsia momenti,  $h$ -ko'tarilsh balandligi,  $v$ -chiziqli tezligi va  $\omega$ -burchak tezligi.  $g$ -erkin tushish tezlanishi. Tinch holatda ( $v = 0$  va  $\omega = 0$ ) deb hisoblab, harakat pastga yo'nalganda (2) tenglamani quyidagicha yozish mumkin.

$$mgh = \frac{m}{2}v^2 + \frac{I}{2}\omega^2 \quad (3)$$

shpindel radiusini bilgan holda  $v$  chastotani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$v = \omega \cdot R \quad (4)$$


(4) va (3) bilan disk inertsia momentini aniqlash mumkin:

$$I = mr^2 \left( \frac{2gh}{v^2} - 1 \right) \quad (5)$$

bunda  $m = 450 \text{ g}$ ,  $r = 3 \text{ mm}$  va  $g = 9.81 \text{ m/s}^2$ .

### Tajriba qurilmasi.

Tajriba qurilmasini 1-rasmga asosan yig'ing. Dastlab yo'rug'lik to'silishi sezuvchi datchikli ramka o'rnatiladigan po'lat ustunlarni yig'ing. Keyin Maksvel diskli sterjenni shunday o'rningki disk o'qi ikki uchi bir sathda bo'lsin. Tajribani boshlashdan oldin diskni pastga va yuqoriga bir necha marta harakatlantirib yaxshi natijaga erishasiz. Ulash kalitini boshqarish blokiga ulang. Shkalali o'lchagichni U-simon tutgichga o'rning. Shkala ko'rsatkichi yuqoridan disk o'qinigi eng yuqori holatiga to'g'rilangan bo'lsin. Bunday holati tajriba davomida o'zgarmasligi kerak. Eng quyi ko'rsatkichi esa yorug'lik nurini to'sish nuqtasi o'rnini bilan barobar bo'lsin.



1-rasm: Maksvel diskli yordamida energiya saqlanishi qonunini tekshirish uchun mo'ljallangan tajriba qurilmasi.

### Tajribaning borishi:

Tajribada disk boshlang'ich holatdan yorug'liq datchigigacha bo'lgan masofani o'tguncha ketgan vaqt  $t$  o'lchanadi va  $s$  masofa o'tgandagi disk tezligi aniqlanadi. Masofa 15 sm dan 55 sm gacha bo'lib 5 sm oralatib o'zgartirib boriladi.

a) Boshlang'ich holatdan yo'rug'lik datchigigacha bo'lgan  $s$  masofada tharakat vaqtini o'lchash

- Klavishli kalitni sanagichning E portiga ulang. Yorug'lik datchigini F portga ulang.

-  $t_E \rightarrow F$  rejimini tanlang


- Diskni yuqori nuqtasiga kalit tugmasini bosguncha ko'taring (2-rasm).

- START tugmasini bosing

- Diskni qo'yib yuboring (sanagich hisoblashni boshlaydi)

- Disk yorug'lik datchigidan o'tishi bilan o'lchash to'xtaydi.

-  $t$  tushish vaqtini yozib oling.





2-rasm: Diskning boshlang'ich holati.

- b) Yorug'lik datchigi yaqinidagi  $v$  tezlikni aniqlash
- Yorug'lik datchigini elektron sanagichning E portiga ulang
  - tE rejimini tanlang
  - Diskni yuqqori nuqtasiga kalit tugmasini bosguncha ko'taring( 2-rasm).
  - Start tugmasini bosing.
  - Diskni qo'yib yuboring (sanagich hali hisoblashni boshlamaydi)
- Disk yorug'lik datchigidan o'tishi davomida o'lchash amalga oshiriladi
- $\Delta t$  vaqtini yozib oling.
  - $v$  tezlik qiymatini quyidagi ifodadan aniqlang

$$v = \frac{d}{\Delta t} \quad (5)$$


shpindel diametri  $d = 6 \text{ mm}$ .

O'lchash namunalari:

1-jadval:  $h$  masofa tanlangan,  $t$  vaqt o'lchangan  $\Delta t$  va tezlik hisoblanadi.

$\frac{h}{\text{sm}}$	$\frac{t}{\text{s}}$	$\frac{\Delta t}{\text{ms}}$	$\frac{v}{\text{m/s}}$
15	2.63	56.50	0.11
20	3.06	47.80	0.13
25	3.47	43.84	0.14
30	3.82	39.35	0.15
35	4.05	36.73	0.16
40	4.45	33.76	0.18
45	4.71	32.13	0.19
50	5.06	30.68	0.20
55	5.18	29.25	0.21

### a) Harakat dinamikasini tahlil qilish.



3-rasm:  $s$ -masofa (qora to'rtburchak) va  $v$  tezlik(qizil uchburchak) qiymatining  $t$  vaqtga bog'liqligi.

3-rasmda 1-jadvalda keltilgan o'lchash natijalari grafik tarzda

keltirilgan. E'tibor qilingki, X-o'qidagi o'lchangan vaqt qiymatlari masofa va tezlik ham tegishlidir. Ko'rinib turibdiki masofaning vaqtga bog'liqligi chiziqli, tezlik qiymati esa parabolik boglanishga ega.

Demak,  $s \sim t^2$  va  $v \sim t$  bog'lanishga ega bo'lamiz.

b) I inertsia momentini aniqlash  $h$  va  $v$  ning o'lchangan qiymatlarini (5) tenglamaga qo'yib har bir o'lchangan qiymatlar uchun I inertsia momentini aniqlang. 2-jadval:

Inertsia momentini aniqlash.

$\frac{h}{\text{sm}}$	$\frac{v}{\text{m/s}}$	$\frac{I}{10^{-3} \text{ kg m}^2}$
15	0.11	1.05
20	0.13	1.00
25	0.14	1.06
30	0.15	1.02
35	0.16	1.04
40	0.18	1.00
45	0.19	1.02
50	0.20	1.03
55	0.21	1.03

Aniqlangan o'rtacha qiymat quyidagicha

$$I = (1.03 \pm 0.03) 10^{-3} \text{ kg/ m}^2$$

c) Energiya aylanishi (3) va (4) tenglamalardan hamda I inertsia momenti qiymatidan foydalanib biz potensial  $E_{\text{pot}}$  va  $E_{\text{kin}}$  kinetik energiyani aylanma  $E_{\text{ayl}}$  va oz'garish energiyasi  $E_{\text{trans}}$  yig'indisi sifatida hisoblab topish mumkin (3-jadval).


$$E_{\text{kin}} = E_{\text{pot}} + E_{\text{trans}} \quad (6)$$

4-rasmda (manfiy) potensial energiya va kinetik energiya keltirilgan. Ular doimo bir xil qiymatga ega bo'ladilar.

Ilgarilanma harakat energiyasi qiymati juda kichik bo'lgani uchun, xulosa qilishimiz mumkinki potensial energiyaning katta qismi aylanma harakat energiyasiga aylanadi.

$t$ s	$E_{pot}$ J	$E_{kin}$ J	$E_{aylanish}$ J	$E_{trans}$ J
2.63	0,66	0,67	0,65	0,02
3.06	0,88	0,93	0,90	0,03
3.47	1,10	1,10	1,07	0,03
3.82	1,32	1,36	1,33	0,03
4.05	1,55	1,56	1,52	0,04
4.45	1,77	1,85	1,81	0,04
4.71	1,99	2,04	2,00	0,04
5.06	2,21	2,23	2,19	0,04
5.18	2,43	2,45	2,40	0,05

3-jadval: Energiyani hisoblash.



4-rasm. Potensial (qora to'rtburchak), kinetik (ko'k doira) va aylangan enrgiya (qizil uchburchak).


Qo'shimcha ma'lumot

Bu tajribani o'tkazishda o'lchashlar uchun taxminan 20 minut va natijalarni baholash uchun 30 min vaqt talab qilinadi. Qo'shimcha mashqda olingan inertsiya momenti qiymati  $I = 1 \text{ kg/m}^2$  bo'yicha erkin tushish tezlanishini aniqlash mumkin. Shuningdek har bir tebrani shda ishqalanish tufayli energiya yo'qotilishini balandlik pasayishini o'lchab hisoblash mumkin. Ilg'or talabalar uchun harakatni yo'nalishi o'zgarishini deyarli elastik to'qnashuvdagidek deb hisoblab tahlil qilishni tavsiya qilamiz.

## 8-laboratoriya ishi.

### HAVODAGI TOVUSH TEZLIGINI HARORATGA BOG'LIQLIGINI O'RGANISH.

- Tavsifnoma CASSY Lab 2 tomonidan tuzilgan
- Tajriba o'tkazish va qurilmani ishga tushirish uchun CASSY Lab 2 yordam ma'lumotnomasidan foydalaning.



Sensor-CASSY, CASSY Lab 2, Timer, Haroratni o'lchash bloki, NiCr-Ni harorat sensori yoki NiCr-Ni S adapter, NiCr-Ni harorat sensori, Ktipli Tovush tezligini qayd qilish qurilmasi, Quvur va ga'ltaklar uchun taglik, Yuqori chastotali tovush dinamigi, Universal mikrofon, Transformator 12 V/3.5 A, Shkalali metall rels 0.5 m, Egarsimon izolyatsiyali taglik, Juft kabel, 25 sm qizil va qora, Juft kabel, 100 sm qizil va ko'k, Windows XP/Vista/7/8 OT kompyuter

#### Nazariy ma'lumot.

Mazkur tajriba tovush impulsining havodagi tarqalish tezligini gruppaviy va fazaviy tezliklari teng bo'lgan holda aniqlaydi. Tovush impulsi "titrovchi" membranali karnayga arrasimon kuchlanish berib hosil qilinadi. Bunda zarb natijasida havoda zarb to'lqini hosil bo'ladi. Tovush impulsi mikrofon yordamida karnaydan malum masofada qabul qilinadi.

c-tovush tezligini aniqlash uchun biz, tovush impulsining karnayda hosil bolishi va mikrofondan qabul qilinishi orasidagi  $t$  vaqtini o'lchaymiz. Karnayda shakllanadigan impulsning aniq boshlanish nuqtasini to'g'ridan-to'g'ri aniqlab bo'lmaydi.

Shuning uchun mikrofonni bir marta  $s_1$  ikkinchi marta  $s_2$  nuqtaga qo'yib o'lchash olib boriladi. Tovush tezligi  $\Delta s = s_1 - s_2$  yo'llar farqi va o'tish vaqtlari farqi  $\Delta t = t_1 - t_2$  nisbati kabi quyidagicha aniqlanadi  $c = \Delta s / \Delta t$ .

Tovush qurilmasiga isitgichdan isitilgan havo yuboriladi shu bilan birga shu vaqtda bu qurilma o'lchashga ta'sir qiluvchi tashqi faktorlar harorat farqi va havo konveksiyasi kabilarni blokirovka qiladi. Bu tizimda  $p$  bosim o'zgarmas saqlanadi (atrof muhitning amaldagi bosimi).  $T$  harorat ortishi bilan  $\rho$  havo zichligi kamayadi va tovush tezligi ortadi.


### **Tajriba qurilmasi (rasmga qarang)**

- Isitgichni tovush tezligini o'lchash qurilmasidagi plastik quvurga tutashtiring.
- Plastik quvurni quvur va shlanglaar uchun mo'ljallangan taglikka joylashtiring va yuqori chastotali karnayni iloji boricha mushtakam o'rnating.
- Universal mikrofonni o'rtadagi tirqishga taxminan 1 sm chuqurlikka o'rnting va harkatlanganda quvur ko'ndalang kesimiga parallel qolishini ta'minlang. Universal mikrofon rezimlarni tanlash muruvatini "Trigger" (ishga tushurish) holatiga o'tkazing. Mikrofonni ishga tushirishni esdan chiqarmang.
- Darajalangan metall relsni tezda egarsimon tutgich ostiga qo'ying.
- Sensor-CASSY dagi A kirishga timerni va B kirishga haroratni qayd qilish qurilmasini ulang va zajirni rasmdagi kabi ulang, S ta'minlash manbaidan kuchlanishni maksimal qilib o'rnating.

### **Ehtiyot choralari**

Yuqori haroratlarda havo uzatuvchi va tezlikni o'lchashda qo'llaniladigan plastik quvurlar buzilishi (erishi) mumkin.  
80 °Cdan yuqori haroratgacha qizdirmang  
Qizdirgichga beriladigan maksimum kuchlanishni 25 V dan oshirmang (tok kuchi esa 5 Aatrofida).

### **Tovushning havodagi tezligi**



### **Tajribani o'tkazish tartibi**

- a) Xona haroratidagi o'lchashlar  
Qurilmani ishga tushuring orqali o'lchashlarni bir necha marta takrorlang.  
Siljiydigan kontaktga ega bo'lgan mikrofon butun yo'l davomida plastik quvur ichida bo'lib, metall relsda  $\Delta s$  masofada o'zgarishlarni seza oladi.  
 $c = \Delta s / \Delta t$  ifodadan foydalanib tovush tezligini aniqlang (Draw Mean dan foydalanib grafikdan tovush o'tish vaqtining o'rtacha qiymatini aniqlang).
- b) Haroratga bog'liqligini o'lchash
  - Qurilmani ishga tushiring
  - Universal mikrofonni o'rnating.

- Xona haroratida yana  $\Delta t A_1$  o'tish vaqtini aniqlang va aniqlangan tovush tezligidan foydalanib  $s=c \cdot \Delta t A_1$  mikrofon va dinamik orasidagi masofani hisoblang, hamda bu qiymatni jadvalga yozing (s-ustundagi birinchi qatorga kiriting).
- Qizdirgichni ta'minlash manbaiga (12 V , tok 3.5 A atrofida) himoyalangan kabell bilan ulang.
- Tok o'tish vaqtini orqali har 5 °Cda aniqlang.

### **Tahlil**

Xona haroratida tovush tezligini aniqlaganingizda ( a-holda) s mikrofon va dinamik o'rtasidagi masofadir. b) holda komyuter dasturi har bir  $\Delta t A_1$  o'tish vaqtida tovush tezligining to'g'ri qiymatini simulyatsiyalab hisoblaydi. Tovush tezligi qiymati o'lchash(tajriba) davomida Harorat ekranida harorat funksiyasi sifatida yozib boriladi. Tuzatma kiritilgan to'g'ri chiziqni adabiyotlarda keltirilgan quyidagi qiymat bilan solishtirishingiz mumkin.



